



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/UMID8816

TA'LIM TIZIMIDA MANTIQIY FIKRLASHDAN FOYDALINISH MASALASI: O'TMISH VA BUGUN

To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Alisher Navoiy
nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya

Maqolada mantiqiy fikrlashning insoniyat rivoji, ilm-fan taraqqiyoti uchun :mo dolzarb bo'lganligi sababli turli davrlarda dunyoning turli joylarida ta'lif berish jarayonida e'tiborga olinganligi, mакtablardan tortib oliy ta'lif muassasalarigacha mantiqiy fikrlashning o'r ganilishi muhim sanalishi, o'quvchilarning turli bilim sohalarida muvaffaqiyatga erishishlari ko'p jihatdan mantiqiy yondashuvlariga bog'liq ekanligi yoritilgan.Tarixga murojaat qilinib, mantiq ilmi bo'yicha katta ish qilgan allomalar: Farobiy, Ibn Sinolar faoliyati yozilgan. Madrasalarda mashg'ulotlar mantiq ilmi qonuniyatlarasi tashkil etilganligi, asosan babs-munozalaralarda toliblar o'z qarashlarini himoya qilishni o'r ganib borishgani, bugungi kunda ta'linda islohotlar qilayotgan davlatlarda mantiqiy fikrlashga qaysi o'r inlarda urg'u berayotganligi, mantiqiy fikrlashning tafakkurning boshqa jihatlari bilan bo'g'lashga intilish kuchayganligini misollar orqali berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lif, mantiqiy fikrlash, ilm-fan, insoniyat, badiiy asar, muhokama.

Аннотация

В статье освещается, что логическое мышление всегда было актуальным для развития человечества и прогресса науки, поэтому оно учитывалось в образовательном процессе в разных частях мира в различные периоды. Подчеркивается важность изучения логического мышления от школ до высших учебных заведений, так как успех учащихся в различных областях знаний во многом зависит от их логических подходов. Обращаясь к истории, упоминается деятельность великих ученых, внесших значительный вклад в науку логики: аль-Фараби и Ибн Сины. Отмечается, что занятия в медресе организовывались на основе законов логики, где студенты в основном учились защищать свои взгляды в дебатах. На примерах показано, что сегодня в странах, осуществляющих реформы в сфере образования, делается акцент на логическом мышлении, усиливается стремление связать логическое мышление с другими аспектами мышления.

Ключевые слова: образование, логическое мышление, наука, человечество, художественное произведение, обсуждение.

Abstract

The article highlights that logical thinking has always been crucial for human development and scientific progress, and has therefore been emphasized in educational processes across different parts of the world throughout various periods. The study of logical thinking is considered important from schools to higher education institutions, as students' success in various fields of knowledge largely depends on their logical approaches. The article references history, mentioning scholars who made significant contributions to the field of logic, such as Al-Farabi and Ibn Sina. It describes how classes in madrasas were organized based on the principles of logic, with students primarily learning to defend their views in debates. The article also discusses how countries currently implementing educational reforms are emphasizing logical thinking, and provides examples of how the integration of logical thinking with other aspects of cognition has intensified in modern education.

Keywords: education, logical thinking, science, humanity, literary work, discussion.



Badiiy adabiyot mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. U inson ongi va tafakkurini estetik zavq bilan uyg'unlikda rivojlantirib, tanqidiy va ijodiy fikrlashga ijobiy ta'sir qiladi. Bu jarayon jamiyat uchun ham, shaxsiy rivojlanish uchun ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Zero mantiqiy fikrlash inson aqliy faoliyatining asosi bo'lib, muayyan masalalarni hal qilishdagi aniqlik va tizimlilikni ta'minlaydi. Bu uslubiy yondashuv insonni xatolardan saqlaydi va to'g'ri qarorlar qabul qilishni osonlashtiradi. Mantiqiy fikrlash kundalik hayotda qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish va murakkab vaziyatlarni boshqarishda katta ahamiyatga ega. Mantiqiy fikrlash insonga vaziyatni to'g'ri tahlil qilib, muammolarning asosiy sabablarini aniqlash imkonini beradi. Faktlarni ko'rib chiqish va turli variantlarni baholash orqali eng to'g'ri qarorga kelish imkoniyati yaratiladi. Mantiq va tahlil ijodiy fikr yuritish jarayonini rivojlantirishga ko'maklashadi. Bu, o'z navbatida, innovatsion yechimlarni kashf qilishga imkon beradi. Hozirgi davrda mantiq ilm-fan, texnologiya va hatto kundalik hayotda muhim rol o'ynaydi. Uning zamonaviy rivojlanishga ta'sirlari sun'iy intellekt va kompyuter fanlarida ham ko'rinoqda. Mantiq algoritmlar va dasturlash asoslarini tashkil etadi. Bugungi kunda sun'iy intellekt tizimlarini yaratish va rivojlantirishda asosiy o'rinni egallaydi. Ishlab chiqarish, ilm-fanda esa dalillarni to'g'ri baholash va mantiqiy xulosalar chiqarish uchun ishlatiladi. Mantiq ilmiy inqiloblar va texnologik innovatsiyalar uchun vosita bo'lib kelgan. Mantiqiy fikrlash muammolarga kreativ yondashuv va yechimlar topishga yordam beradi. Sotsiologik va iqtisodiy masalalarni hal qilishda mantiqiy tahlil muhim o'rinni tutadi. Maktablardan tortib oliv ta'lim muassasalarigacha mantiqiy fikrlashning o'rganilishi muhim sanaladi. O'quvchilarning turli bilim sohalarida muvaffaqiyatga erishishlari ko'p jihatdan mantiqiy yondashuvlariga bog'liq. Masalan, matematikaga oid masalalarni yechish, ilmiy izlanishlar olib borish va natijalarni tahlil qilish uchun asos bo'lsa, tilda nutqni mantiqan tuzish va o'z fikrini aniq yetkazish muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti uchun mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lganlar har :m zarur bo'lgan. Chunki to'g'ri fikrlovchi shaxslar: texnologik va ilmiy yutuqlarga hissa qo'shadilar, murakkab ijtimoiy muammolarni yengishga xizmat qiluvchi strategiyalarni ishlab chiqadilar, o'z sohalarida yetakchilik, boshqaruvchilik ko'nikmalarini namoyon etadilar.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish esa har bir inson uchun zaruriy ehtiyojdir. Badiiy adabiyot nafaqat estetik zavq olish, balki fikrlashni tizimlashtirish va mantiqiy xulosalar chiqarishga yordam beradigan muhim vositalardan biridir. Uning ta'siri bilan badiiy asarlar mutolaasi insonni turli vaziyatlarni tasavvur qilib ko'rishga va ularni chuqur tahlil qilishga undaydi. Bu jarayon tafakkurni faollashtiradi va sabab-oqibat aloqalarini tushunishga olib keladi. O'z navbatida asarda sodir bo'ladigan voqealarning sabablari va oqibatlarini aniqlash mantiqni o'stirishga katta hissa qo'shamdi. Qahramonlarning qarorlari va harakatlari orqali inson o'zi uchun xulosalar chiqarishni o'rganadi. Bu o'rinda jarayonni zanjir reaksiyasiga qiyoslash mumkin. Ya'ni, badiiy adabiyot og'zaki va yozma muloqtlarni tahlil qilish orqali mantiqiy, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Asar



tahlilida har bir qahramonning xarakteri, tutumini tushunish uchun o'quvchi mantiqiy mushohada yuritishi, badiiy asarning g'oyasi, falsafiy ma'nosining "tagiga" yetish uchun ham mantiqiy fikrlash lozim bo'ladi. Adabiy obrazlar orqali kelib chiqadigan yangi g'oyalar oqimi mantiqiy izlanishlarni rag'batlantirish, voqealar rivoji, ziddiyatlar va yechimlar orqali o'quvchi fikrini tuzilgan shaklda ifodalashni o'rganish nutq madaniyatini yaxshilash bilan birga, mantiqqa asoslangan fikr bildirish ko'nikmasini shakllantiradi Maktab darsliklariga kiritilgan badiiy asarlar o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda va ularning dunyoqarashini kengaytirishda muhim o'rinni tutadi. Dars jarayonida muhokama qilinadigan badiiy asarlar bolalarning analistik fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi. Bolalar fikrlarini erkin yetkazish va mustaqil mulohazalar bildirishni o'rganadilar.

Fikrlash, psixologik imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish, barkamollikni egallash borasida ijtimoiy shayotning turli jabshalarida ta'lim yetakchi faoliyat tariqasida muhim rol o'ynaydi¹⁸⁵. Mantiqiy fikrlashning ahamiyatini yuqori baholagan ajdodlarimiz ta'lim tizimida o'rta asrlardanoq bu masalaga jiddiy ahamiyat berishgan. Markaziy Osiyoning ilmiy markazlari bo'lgan Buxoro, Samarqand va Marv shaharlari mantiq ilmi rivojiga katta hissa qo'shgan. Xususan, Forobiy va Ibn Sino kabi mutafakkirlar mantiqni rivojlantirishda yetakchi bo'lishgan. Bu soha XIV-XV asrlargacha ilm-fanning ajralmas qismi bo'lib kelgan.

IX-XI asrlarda Sharq mamlakatlarida, xususan, O'rta Osiyoda falsafiy va mantiqiy ta'limotlarning rdvojlanishiga qadimgi yunon, hind mutafakkirlari asarlarining ko'plab tarjima qilinishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, Yaqin va O'rta Sharqda mantiqiy ta'limotlarning rivojlanishhidagi eng davr IX-XI asrlar hisoblanadi. Bu davrda mantiq ilmini o'rganishga bo'lgan talabning oshishi, birinchidan, tabiatshunoslik fanlarining rivojlanishi va tabiiy-ilmiy bilimlarga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi bilan; ikkinchidan, ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni to'g'ri,adolatli hal qilishga intilishning ortishi bilan va uchinchddan, eng muhimi, to'g'ri fikr yuritishga bo'lgan talabning chin fikrlarni xato fikrlardan ajratish zaruriyati bilan izohlanadi¹⁸⁶

Madrasalarda mantiqning o'qitilishi tarixiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, ilm-fan rivojiga xizmat qilgan. Madrasalarda ta'lim olayotgan talabalar uchun ta'lim dasturlari uch bosqichga ajratilgan: birinchi, quiyi bosqich, ikkinchi, o'rta bosqich va uchinchi, yuqori, oliy bosqich deb yuritilgan. Har bir bosqich uchun alohida dastur ishlangan bo'lib, bir bosqichdan navbatdagi bosqichga o'tish yakuniy imtihonlar orqali hal etilgan. Shu bilan talabalarning oladigan nafaqalari (stipendiya) ham oshirilib borilgan. Asosiy ta'lim metodlari ma'ruza va bahs-munozaralarni tashkil qilgan. Ma'ruza (va'zxonlik)larda 100 tadan 400

¹⁸⁵ E.G'oziyev.Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. I kitob Toshkent - "Universitet" – 2002. 54-b

¹⁸⁶ Шарипов М., Файзихужаева Д. Мантиқ.: Ўқув қўлланма /Масъул мұхаррир : А.Утамуродов . - Т. : F. Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004 б. 22 -б.



tagacha tinglovchilar, ta'lif oluvchilar qatnashgan. Madrasada arab, fors va turkiy allomalarining asarlaridan tashqari qadimgi hind va yunon olimlaridan Klavdiy Ptolomey, Sokrat, Platon, Aristotel va boshqalarning arab tiliga o'girilgan asarlari hamda ularga yozilgan sharhlar darslik sifatida o'qitilgan. Badiiy adabiyotga :r asarlardan Abulqosim Firdavsiy, Forobiy, Ibn Sino hamda Beruniy asarlari sevib o'rganilgan. Madrasalarga talabalar imtihon yoki tanlov asosida o'qishga qabul qilingan. Mudarrislar ham imtihon qilingan va davlat rahbari tomonidan tayinlangan. Mudarrislar dars berishdan tashqari qozilik, muftiylik kabi davlat ishlari bilan ham shug'ullanib turishgan. O'qish yili oxirida ham talabalar o'tilgan fanlar yuzasidan imtihon topshirishgan. Imtihon bevosita ottonalar ishtirokida qabul qilingan. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga shahodatnama (diplom) topshirilgan. Madrasa o'quv dasturining umumiy jihatlari X-XII asrlarda ishlab chiqilgan va keyinchalik takomillashib borgan.

Mutribiyning yozishicha, u alloma Taftazoniyning "Mutavval" kitobi asosida ilmi maoniy, ilmi bayon, ilmi bade' sohalarini bir necha yil davomida o'sha davrning zabardast olimi Ismatullo Oxunddan o'zlashtiradi. Yoshligida esa Buxoroda Erondan kelgan va "Mullo nav" laqabi bilan tanilgan faylasuf olim Mirzojon Sheraziyning ommaviy dars va bahs-munozaralarida qatnashgan¹⁸⁷

Samarqand keyingi asrlarda ham oliy o'quv maskani sifatida tolibi ilmlarni o'ziga chorlab keldi. Tarixchi olim I.Bekjonning Mutribiy hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan maqolasida XVI asr oxiri XVII asr boshlarida ham "Samarqandda Madrasai oliyaiy Saroymulkxonim, Sulton Ulug'bek, Amir Shohmalik, Xo'ja Ahror, Shayboniyxon, Abu Saidxon, Amirkxon, Qozi Abdulg'afur shahid, Muhammad Ali Darvesh Tarxon, Soqiy Zominiy, Madrasayi Xo'rjin va yana boshqa madrasalar faoliyat ko'rsatganligi, adib ularda o'lkaning o'ta bilimdon, malakali ustoz olimlari, Turkiya, Eron, Ozarboyjon, Afg'onistonidan kelgan allomalar aniq, tabiiy, diniy va gumanitar fanlardan davomli darslar bergenini yozadi.¹⁸⁸

Aristotel mantiqni mustaqil ilm sohasi sifatida shakllantirgan dastlabki faylasuflardan biri hisoblanadi. U mantiqni boshqa fanlarga yo'l ochuvchi vosita sifatida ko'rgan. Aristotelning deduktiv fikrlashga asoslangan uslubi mantiqni tizimli va nazariy asos bilan ta'minlagan.

Forobiy IX-X asrlarda yashagan mashhur musulmon faylasufi, muallif va olim bo'lib, uning asarlari falsafa, mantiq, musiqa va ijtimoiy fanlarga oid ko'plab mavzularni qamrab oladi. U avvalgi yunon faylasuflarining asarlarini o'rgangan va o'z fikrlarini rivojlantirgan. Forobiy IX-X asrlarda yashagan mashhur musulmon faylasufi, muallif va olim bo'lib, uning asarlari falsafa, mantiq, musiqa

¹⁸⁷ M.J. Xasanova Samarqandda madrasa ta'limi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz [samarqandda-madrasa-ta-limi \(1\).pdf](http://www.oriens.uz/samarqandda-madrasa-ta-limi (1).pdf)

¹⁸⁸ M.J. Xasanova Samarqandda madrasa ta'limi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz [samarqandda-madrasa-ta-limi \(1\).pdf](http://www.oriens.uz/samarqandda-madrasa-ta-limi (1).pdf)



va ijtimoiy fanlarga oid ko'plab mavzularni qamrab oladi. U avvalgi yunon faylasuflarining asarlarini o'rgangan va o'z fikrlarini rivojlantirgan.

Yana bir mantiq bilan shug'ullangan alloma Ibn Sino o'z asarlarida Aristotel mantiqiyliz tizimini davom ettirgan bo'lsa-da, uni yangi qarashlar bilan boyitgan. Ibn Sino Aristotel mantiq'i elementlarini islam tushunchalari bilan birlashtirishga intildi. U mantiqning nafaqat nazariy tomonlarini balki amaliy ahamiyatini ham ko'rsatishga intilgan.

Ibn Sino mantiq insonni xatolardan saqlaydi va uni haqiqatga eltadi, u fikrlash ilmidir deydi. Mantiqiy usullarni to'g'ri qo'llash haqiqatni bilishning kalitidir, deb ta'kidlagan alloma o'z asarlarida fikrlashda ravshanlikning muhimligini, bu noto'g'ri tushuncha va xatolardan qochish imkonini beradi deb hisoblagan.

Bugungi kun ta'lilda ham mantiqiy fikrlashga yo'naltirish masalasi dolzarblik kasb etib turibdi. XXI asrda ham odamlarning kamoloti negizi sifatida oila, maktab, ijtimoiy muhit, ishlab chiqarish o'z mavqeini saqlab qolaveradi. Ijtimoiy mushitdag'i shaxslararo munosabatda tashlil qilish, ibrat olish vositalari yordami bilan xulq-odob, fikrlash malakalarini egallash shaxsni tarbiyalash asosida amalga oshirilishi mumkin¹⁸⁹. Shu sababli dunyo ilm-fanida mantiqiy fikrlashga r'izlanishlar olib borilmoqda.

Tadqiqotlarda turli fanlar bo'yicha mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini integratsiyalashga urg'u berilmoqda. Aniq fanlarga oid yondashuvlar orqali fikrlash ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan oldingi izlanishlarga asoslanadi. Fanlararo integratsiyaga muvofiq Vu Min Tuan (2015) kimyo orqali fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va Thai Thi Hong Lam matematikada o'zaro fikrlashni o'rghanish kabi oldingi ishlarni ko'rib chiqqan. Bu mantiqiy fikrlashni nafaqat matematikada, balki boshqa fanlarda ham shakllantirish mumkinligini keng tan olinishini ko'rsatadi. Matematika va biologiya integratsiyasi ham tadqiq etilgan bo'lib, unda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun matematik-biologik mashqlardan foydalanishni tavsiya etiladi. Bu mantiq va mulohaza yuritish nafaqat matematikada, balki biologik kontekstda ham samarali qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu yondashuv mantiqiy fikrlashni turli fanlarni qamrab oladigan markaziy ko'nikma sifatida ko'rsatadigan keng qamrovli tadqiqotlarga mos keladi. O'qitish usullariga oid ishlarda tadqiqotchilar G. Polyaning "matematika o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchilarni fikrlashga o'rgatishdir" degan fikrini ta'kidlaydi. Bu samarali o'qitish usullari o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerakligini mustahkamlaydi. Bu g'oya boshqa ta'lim sohalarida ham aks etgan.

Amaliy qo'llanish masalasida ham mantiqqa murojaat qilinadi. Tadqiqotlarda biologiya darslarida mantiqiy fikrlash mashqlarini qo'llash uchun amaliy asoslarni taklif etiladi. Bu nazariy bilimlarni o'quvchilarda mantiqiy

¹⁸⁹ E.G'oziyev. Umumiy psixologiya Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. I kitob.-Toshkent: "Universitet", 2002. 93-b.



mulohaza yuritishni rag'batlantiradigan aniq o'quv strategiyalariga aylantirish mumkinligini ko'rsatadi. Bu yondashuv boshqa fanlarda o'rganilgan strategiyalarga o'xshashdir. Umuman olganda, tadqiqot fanlararo mantiqiy fikrlashning ahamiyatini ta'kidlash va o'quvchilarda ushbu muhim ko'nikmani shakllantiruvchi innovatsion o'qitish usullarini qo'llab-quvvatlash orqali mavjud tadqiqotlar bilan uyg'unlashgan keng qamrovli asosni taqdim etadi.

Ta'linda islohat qilayotgan davlatlarda ham qilingan ishlar sarhisobida mantiqiy fikrlashga yetarli e'tiborning yo'qligi alohida kamchilik, to'siq sifatida qayd etilgan. Masalan, Vietnamda o'rta maktab o'qituvchilari kompetensiyaga asoslangan o'qitish yondashuviga o'tishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelmoqda¹⁹⁰. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishga o'tish keng qamrovli ta'lim islohotining bir qismi bo'lib, muammolarni hal qilish uchun vaqt, o'qitish va ta'lim organlarining qo'llab-quvvatlashini talab qiladi. Keltirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, bu qiyinchiliklar quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'qitish metodologiyasidagi o'zgarish, an'anaviy mazmun-markazli o'qitishdan kompetensiyaga asoslangan yondashuvga o'tish o'qituvchilar uchun murakkab jarayon hisoblanadi. Bu o'zgarish nafaqat o'qitish amaliyotini tubdan o'zgartirishni, balki o'quv materiallari va strategiyalarini shunchaki ma'lumot yetkazishdan ko'ra ko'proq ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratishni talab qiladi. Yana bir muammo resurs chekllovleri. Ko'pchilik o'qituvchilar kompetensiyaga asoslangan o'qitish usullarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydigan tegishli resurslar yoki yordam tizimlaridan foydalana olmasligi mumkin. Bu esa ularning yangi tizimda samarali ta'lim berish imkoniyatiga to'sqinlik qilishi mumkin. Baholash muammolari ham to'siqlardan biri sifatida ko'rsatilgan. Baholash strategiyalarini an'anaviy bilimlarni tekshirishdan kompetensiyalarini baholashga moslashtirish qiyinchilik tug'dirishi mumkin. O'qituvchilar o'quvchilarning tushunish darajasi va ko'nikmalarini qanday o'lchashni qayta ko'rib chiqishlari kerak, bu esa yangi baholash vositalari va usullarini talab qilishi mumkin. Malaka oshirish masalasi o'qituvchilarning kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarni tushunishi va samarali qo'llashi uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq, bunday ta'limning mavjudligi va sifati sezilarli darajada farq qilishi mumkin, bu esa o'qituvchilarning yangi metodikalarni o'zlashtirish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatadi. Biz nazarda tutayotgan mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini singdirishd ham muhim faktor sifatida ko'rsatilgan. O'qituvchilar mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini turli fanlarga singdirishlari lozim, chunki bu ko'nikmalarni rivojlantirish o'quvchilarning umumiy kompetensiyasini oshirish uchun muhimdir. Bu jarayon o'quv dasturida samarali amalga oshirilishi uchun qo'shimcha tayyorgarlik va resurslarni talab etadi.

¹⁹⁰ Nguyen Thi Hang Nga, Phan Thi Thanh Hoi, Le Dinh Trung, Ha Van Dung. Building and Using Mathematical – Biological Exercises for Developing Logical Thinking Competency for High School Students in Vietnam. American Journal of Educational Research, 2018, Vol. 6, No. 11, 1551-1557 Available online at <http://pubs.sciepub.com/education/6/11/14>



Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishga o'tish keng qamrovli ta'lif islohotining bir qismi bo'lib, bu muammolarni hal qilish uchun vaqt, o'qitish va ta'lif organlarining qo'llab-quvvatlashini talab qiladi.

Ba'zi tadqiqotchilar¹⁹¹ san'at bilan bog'liq o'quv fanlarida ijodiy fikrash bilan mantiqiy fikrlashni uyg'unlashtirish masalasini o'rganishgan. Unga ko'ra ijodiy va mantiqiy fikrlashni bog'lash, ta'lif jarayonida pedagogik yondashuvlar va metodlarni birlashtirish orqali amalga oshiriladi, bu esa o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ijodiy va mantiqiy fikrlashni bog'lash quyidagi usullar va yondashuvlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

1. Integratsiya qilish: Ijodiy (badiiy) va mantiqiy fikrlash o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganish uchun integratsiya tamoyilidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu usul o'quvchilarning intellektual-qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'yndaydi.

2. Pedagogik yondashuvlar: Ta'lif jarayonida ijodiy va mantiqiy bilimlarni birlashtirish, o'quvchilarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun o'qituvchilar bilim va ko'nikmalarni bog'lashga yo'naltirilgan yondashuvlarni qo'llashlari zarur.

3. Metodologik yondashuvlar: ijodiy va mantiqiy fikrlashni bog'lash uchun yangi pedagogik yondoshuvlar ishlab chiqish muhimdir. Bu erda ijodiy fikrlash va mantiqiy fikr o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tushunishga qaratilgan metodlar qo'llaniladi.

4. Amaliy tajribalar: o'quvchilarni ijodiy va mantiqiy faoliyatda birlashtirish uchun tajribalar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish tavsiya etiladi. Bu jarayon ijodiy o'yinlar, muammoni hal qilish vazifalari va boshqa ijodiy faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Tafakkur jarayonida intuitsiya va mantiqning o'zaro munosabati masalasi psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilgan. Intuitsiya va mantiq tafakkurning turlicha, biroq bir-birini to'ldiruvchi qismlari sifatida qaraladi. Intuitsiya ko'pincha g'oyalalar yoki yechimlar to'satdan "xayolga kelishi" kabi oniy anglashlar yoki insaytlar shaklida namoyon bo'ladi. Mantiq esa, o'z navbatida, tahlil va baholash mezonnari muhim ahamiyat kasb etadigan masalalarni yechishda yanada tizimli va izchil yondashuvni qo'llaydi. Zamonaviy tadqiqotchilar, jumladan A. N. Luk, variantlarni ongli ravishda ko'rib chiqish ijodkorlikka olib boradigan eng sodda yo'l ekanligini ta'kidlaydi: "Variantlarni fikran saralash ongosti darajasida sodir bo'lishi mumkin, yaroqsiz yo'llar rad etiladi, yechimga olib boradigan yo'l esa ongga kirib keladi".

Shunday qilib, intuitsiya ijodiy jarayonga dastlabki turtki bo'lishi mumkin, mantiq esa bu g'oyalarni tartibga soladi va ularni yanada yaxlit hamda asosli qarorlarga aylantirish imkonini beradi. B. M. Nemenskiyning fikricha, hissiy-

¹⁹¹ Т. Ю. Конкина. Интеграция художественной и логической составляющих в представлении учителей изобразительного искусства в условиях реализации федерального государственного образовательного стандарта. Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2016. 8 (173)



obrazli tafakkur ham bu o'zaro bog'liqlikni tasdiqlaydi, chunki san'at bilish jarayonida ham intuitiv, ham mantiqiy yondashuvni talab etadi. Tafakkur jarayonida intuitsiya va mantiq muhim, biroq turli xil vazifani bajaradi. Ularning samarali uyg'unligi ijodiy va tahliliy faoliyat natijalarini sezilarli darajada boyitishi mumkin.

Federal davlat ta'lism standartini (FDTS) amalga oshirish sharoitida tasviriy san'at o'qituvchilari ega bo'lishi lozim bo'lgan asosiy kompetensiyalar sifatida badiiy va mantiqiy tarkibiy qismlarni uyg'unlashtirish nazarda tutilgan. Ta'lism jarayonida o'qitishning badiiy va mantiqiy jihatlarini birlashtira olish muhim ahamiyatga ega. Bu fanni chuqurroq anglashga va o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi tarzida izohlangan. Undan tashqari yana quyidagi faktorlar ham ko'rsatilganki, mantiqiy fikrlashning ta'sir :rasini yaqqolroq tasavvur qilish uchun keltirib o'tiladi. Standartlarni bilish va tushunish nazarda tutilgan bo'lib, o'qituvchilar boshlang'ich umumiyligi ta'limga Davlat ta'lism standarti va Pedagogning kasbiy standarti talablarini mukammal bilishlari kerak. Bu o'quvchilarda universal o'quv ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. O'qitish usullarini egallash ham o'qituvchilar o'quv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradigan turli yondashuvlar va usullarni, jumladan, badiiy va ijodiy strategiyalarni puxta o'zlashtirgan bo'lishlari shart. O'qituvchilar badiiy-tasviriy faoliyat orqali o'quvchilarda tahlil, sintez va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantira olish mahoratiga ega bo'lishlari universal o'quv ko'nikmalarini shakllantirish qobiliyati sifatida izohlanadi. Yangi texnologiyalarga ochiqlik masalasi: tasviriy san'atni o'qitishda zamonaviy usullar va texnologiyalardan, xususan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishga tayyor bo'lish kabi. Ushbu kompetensiyalar ta'lism standartlarini muvaffaqiyatli joriy etish va tasviriy san'at sohasida sifatli ta'limga ta'minlash uchun g'oyat muhimdir.

Tadqiqot, loyihalarda o'qituvchilarning san'at darslarini o'qitishdagi tayyorgarligi, shuningdek, Federal davlat ta'lism standartlariga muvofiq o'qitish jarayonida san'at va mantiqiy komponentlarni birlashtirish zarurati haqida muhokama qilinadi. Mantiqshunoslar mantiqning formal shakllarini yaxshi o'rganishning bir necha muhim sabablarini ko'rsatishadi. Ulardan biri fikrlash madaniyatini rivojlantirish: formal mantiq to'g'ri fikrlashning asosiy prinsiplari va shakllarini o'rgatadi, bu esa talabalarning tahliliy faoliyatini oshiradi. Muammo yechimlarini to'g'ri qabul qilish: muammo yechimlarini aniqlashda va to'g'ri xulosalar qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu bilim talabalarga fikrlash jarayonida xatolarni kamaytirish imkonini beradi. Mantiqni puxta o'zlashtirish, talabalar faol a'zolari bo'lib sog'lom jamiyat qurishning asosiy shartlaridan biridir. Ushbu bilim, ularga yangi tafakkur metodlari bilan tanishtirish orqali talabaning jamiyatdagi o'rnini aniqlashga yordam beradi. Formal mantiq samarali usullar va konseptual vositalarni o'z ichiga oladi, bu esa talabalar ta'lism jarayonida samarali mantiqiy muloqot va bahslashish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu sabablarga ko'ra, mantiq formal shakllarini



o'zlashtirish talabalarning intellektual qobiliyatlarini oshirishda va ularni sog'lom fikrlashga o'rgatishda muhim ahamiyatga ega.

Mantiqiy fikrlashni yaxshi o'rganishning bir necha muhim sabablari ko'rsatiladi. Fikrlash madaniyatini rivojlantirish ana shunday sabablardan biri. Mantiqiy yondashish to'g'ri fikrlashning asosiy prinsiplari va shakllarini o'rgatadi, bu esa o'quvchi va talabalarning tahliliy faoliyatini oshiradi. Muammo yechimlarini to'g'ri qabul qilish sabablardan biri sifatida sharhlanadi. Mantiq ko'pincha muammo yechimlarini aniqlashda va to'g'ri xulosalar qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu bilim o'quvchilarga fikrlash jarayonida xatolarni kamaytirish imkonini beradi. Uni puxta o'zlashtirish sog'lom jamiyat qurishning asosiy shartlaridan biridir. Ushbu bilim, ularga yangi tafakkur metodlari bilan tanishtirish orqali o'quvchi, talabaning jamiyatdagi o'rnini aniqlashga yordam beradi. Formal mantiq samarali usullar va konseptual vositalarni o'z ichiga oladi, bu esa ta'lif jarayonida samarali mantiqiy muloqot va bahslashish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu sabablarga ko'ra, mantiqiy fikrlashni o'zlashtirish o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirishda va ularni sog'lom fikrlashga o'rgatishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyot:

1. E.G'oziyev. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. I kitob. - Toshkent: "Universitet", 2002. -163 b.
2. Шарипов М., Файзиухжаева Д. Мантиқ: Ўқув қўлланма /Масъул мұхаррир : А.Утамуродов . - Тошкент: F. Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004. - 216 б.
3. M.J. Xasanova. Samarqandda madrasa ta'limi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz samarqandda-madrasa-ta-limi (1).pdf
4. Nguyen Thi Hang Nga, Phan Thi Thanh Hoi, Le Dinh Trung, Ha Van Dung. Building and Using Mathematical – Biological Exercises for Developing Logical Thinking Competency for High School Students in Vietnam. American Journal of Educational Research, 2018, Vol. 6, No. 11, 1551-1557 Available online at <http://pubs.sciepub.com/education/6/11/14>
5. Т.Ю.Конкина. Интеграция художественной и логической составляющих в представлении учителей изобразительного искусства в условиях реализации федерального государственного образовательного стандарта. Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2016. 8 (173)
6. Tuychieva M. U. (2023). Pedagogical, methodological and psychological aspects of attracting teenagers to fiction. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(11), 28-39.
7. Tuychieva M. U. (2025). Research on logical thinking in literary education. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 5(3), 27-33.
8. Tuychieva M. (2025). The importance of age-specific characteristics in the process of guiding thinking in literary education. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 5(4), 18-22.
9. Shirinova, Y., Iskandarova, G. (2024). Inson – madaniyatlar chorrahasida. O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2 (5): 83-89. :: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/NQUG6205// <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/79>
10. Shirinova, Y.T. 2022. Madaniyatlararo kommunikatsiya xususida // INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. September. [\(в формате PDF\)](#)



МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ, ПОСВЯЩЕННАЯ РОЛИ И ЗНАЧЕНИЮ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В 21 ВЕКЕ (researchgate.net)

11. Ширинова, Е. Т. 2023. «Некоторые соображения о коммуникации». Узбекистан: язык и культура. Вопросы прикладной филологии. 1(5): 84-91. Получено с <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/84-91> :: <https://www..org/10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/EFEZ1339>

12. Shirinova, Y. (2024). НЕКОТОРЫЕ ПРИНЦИПЫ И ПОДХОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В МНОГОЯЗЫЧНОЙ И ПОЛИКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЕ. *Uzbekistan Language and Culture*, 1(01). Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/110>

13. Shirinova, Y. (2024). КОНФЛИКТНОЕ ОБЩЕНИЕ: ФАКТОРЫ, ПРИЧИНЫ, НЕКОТОРЫЕ ПУТИ ПРЕОДОЛЕНИЯ. *Uzbekistan Language and Culture*, 2(02). Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/113>

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/KUWE1329

**JADID ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODINI
O'RGANISH TAJRIBASI**

Oymatova Nilufar Mirjamolovna

Profi universiteti o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
nilufar.oymatova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid adabiyotini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiyning ijodini o'rghanish jarayonida interaktiv metodlar, multimedia vositalaridan foydalanish tajribasi o'rghaniladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida talabalar bilimini mustahkamlash, ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va milliy ma'naviyatni chuqur anglashga erishish yo'llari ko'rsatilib, asosan, Behbudiy asarlarini o'rghanishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligi ilmiy asosda tahlil qilinadi va amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: jadid adabiyoti, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, multimedia vositalari, interaktiv o'qitish, raqamli ta'lim, innovatsion metodlar, mustaqil fikrlash.

Аннотация: В данной статье анализируется значение и возможности использования современных педагогических технологий в преподавании джадидской литературы. В частности, в процессе изучения творчества Махмудходжи Бехбуди изучается опыт использования интерактивных методов и мультимедийных средств. Также показаны пути укрепления знаний студентов с помощью современных технологий, развития их навыков самостоятельного мышления и достижения глубокого понимания национальной духовности, в основном, на научной основе анализируется эффективность инновационных подходов к изучению произведений Бехбуди и даются практические рекомендации.

Ключевые слова: джадидская литература, современные педагогические технологии, мультимедийные средства, интерактивное обучение, цифровое образование, инновационные методы, самостоятельное мышление. Ключевые слова: джадидская литература, современные педагогические технологии, мультимедийные средства, интерактивное обучение, цифровое образование, инновационные методы, самостоятельное мышление.



NUTQINI BAHOLASH PEDAGOGIK-METODIK MUAMMO SIFATIDA		
<i>Ermatova Durdona Zafarjon qizi. INDUCTIVE AND DEDUCTIVE METHODS IN TEACHING UZBEK AS A FOREIGN LANGUAGE: A COMPARATIVE PEDAGOGICAL ANALYSIS</i>	797	
<i>Raxmatullayeva Ruxshona Sherzod Qizi. O'ZBEK MILLIY TAOMLARI NOMLARINING SHEVALARDAGI UMUMIY VA FARQLI JIHATLARI</i>	800	
<i>Xudayberdiyeva Orifaxon Rustamjon qizi. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSIKA TUSHUNCHASI</i>	803	
VII SHU'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR		
<i>P.Hiёзметова. БАДИЙ АСАРДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ВА ҚАҲРАМОНЛАР ТУЙҒУЛАРИ ИФОДАЛАНИШИНИ ЎРГАНИШ</i>	809	
<i>P.Hiёзметова. O'ZBEK ADABIY TA'LIMIDA XORIJY METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI</i>	813	
<i>Исманова Акибатхан Алимжановна. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ "ЎТКАН КУНЛАР" ВА ТЎЛАГАН ҚОСИМБЭКОВНИНГ "СИНГАН ҚИЛИЧ" АСАРЛАРИДА ХОНЛИКЛАР ДАВРИНИНГ БАДИЙ ТАЛҚИНИ</i>	820	
<i>Turakulova Okila Amirkulovna. TA'LIM JARAYONIDA YOSHLARIMIZNING MILLIY O'ZLIGINI ANGLASHIDA BADIY ASARLARNING TUTGAN O'RNI</i>	825	
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umakulovna. TA'LIM TIZIMIDA MANTIQIY FIKRLASHDAN FOYDALINISH MASALASI: O'TMISH VA BUGUN</i>	830	
<i>Oymatova Nilufar Mirjamolovna. JADID ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH: MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODINI O'RGANISH TAJRIBASI</i>	839	
<i>Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna. ADABIY ASARNING BADIY MAZMUNINI ANGLASH YO'LLARI</i>	844	
<i>Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi. MAKTAB TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH</i>	852	
<i>Abdixoliqova Mastona Raxim qizi. XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'QITISHNING INNOVATSION VA PSIXOPEDAGOGIK ASOSLARI</i>	857	
<i>Abduraxmanova Ilmira Alimjonovna. O'QITUVCHINING "SEHRLI TAYOQCHASI": FAOLLIKNI OSHIRUVCHI METODLAR T AHLILI</i>	862	
<i>Abdusattorova Dilshodabegim. ERTAKLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA ILOVALARINING O'RNI</i>	865	
<i>Adashaliyeva Nigora Shuhratjonovna. ADABIY TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING BADIY-ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	870	
<i>Beknazarova Farida Matraxim qizi. 5-6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH</i>	875	

